

**MAHMUD G'AZNAVIY – QUDRATLI HUKMDOR
VA MOHIR SARKARDA**

Ruxshona Abduvohidova

Namangan davlat universiteti, Tarix yo'nalishi talabasi

E-mail: ruxshona01062005@gmail.com

Tel: +998931021725

Annotatsiya: Ushbu maqolada X – XII asrlarda mayjud bo'lgan, o'z davrida Sharqning qudratli davlatlaridan hisoblangan G'aznaviyalar sultanatining eng buyuk hukmdorlaridan biri – Mahmud G'aznaviyning hukmronlik davri, boshqaruv tizimi va harbiy yurishlari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: G'aznaviyalar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'azna, Xuroson, Ray, Sobuqtegin, Nuh III, Mahmud G'aznaviy, Sayida Xotun, sarkarda, "saltanat qilichi".

Аннотация: В данной статье представлены сведения о правлении, системе управления и военных походах Махмуда Газневи, одного из величайших правителей империи Газневидов, существовавшей в X-XII веках и считавшейся одним из могущественных государств Востока.

Ключевые слова: Газневиды, Саманиды, Караканиды, Газна, Хорасан, Рай, Собуктегин, Нух III, Махмуд Газневид, Сайида Хатун, полководец, «меч царства».

Anotation: This article provides information about the reign, management system and military campaigns of Mahmud Ghaznavi, one of the greatest rulers of the Ghaznavid Empire, which existed in the 10th-12th centuries and was considerent one of the most powerful states of the East.

Keywords: Ghaznavids, Samanids, Karakhanids, Ghazna, Khurasan, Ray, Sobuqtegin, Nuh III, Mahmud Ghaznavid, Sayida Khatun, commander, "sword of the kingdom".

X – XII asrlarda butun Sharq dunyosiga dovrug' solgan G'aznaviyarning ham rasman, ham amalan siyosiy kuch sifatida tilga olinishi 996-yilga to'g'ri keladi. Ma'lumki, bu davrda Markaziy Osiyodagi siyosiy vaziyat juda tarang bo'lib, qudratli Somoniylar davlati yemirila boshlagan edi. Bundan foydalangan Qoraxoniylar bir necha marta Buxoroga taxdid soladi. Bu og'ir vaziyatda Sobuqtegin^{*} Somoniylarni Qoraxoniylar changalidan asrab qoladi. Somoniylar Nuh III raqib oldidagi zaifligini sezga holda unga murojaat qiladi. Sobuqtegin Buxoroni qo'lga olib, Qoraxoniylar bilan kelishuvga imzo chekadi. Bunga ko'ra, Amudaryordan janubda joylashgan barcha viloyatlar Sobuqteginning nomiga muhrlanadi. Uning vafotidan (997-yil) keyin

* Sabuktegin – davlat arbobi va sarkarda, turkiy g'aznaviyalar sulolasi va G'aznaviyalar davlati asoschisi.

avvaliga taxtga biroz muddat (7 oy) uning o'g'li Ismoil va 998-yildan esa boshqa farzandi Mahmud chiqadi. G'aznaviyalar qudrati va shuhratini oshirgan hukmdor ham aslida ana shu Mahmud bo'ladi [1. – B. 115].

Mahmud G'aznaviy 971-yil 2-noyabrda Zabuliston viloyati (hozirgi Afg'oniston) ning G'azni shahrida tug'ilgan. Uning otasi Sobuqtegin turkiy qul sarkarda bo'lib, 977-yilda G'aznida Somoniylarga bo'ysinuvchi G'aznaviyalar davlatiga asos solgan. Onasi esa zabulistonlik zodagonning qizi bo'lган. Shuning uchun ham u ba'zi manbalarda "Mahmudi Zavuliy" ("Zabulistonlik Mahmud") deb ham yuritiladi.

Mahmud G'aznaviyning bolaligi haqidagi ma'lumotlar juda ham kam yetib kelgan [7]. Aynan ilmiy adabiyotlarda ko'pincha, Mahmud G'aznaviy deb yuritilgan Abulqosim Mahmud (998 – 1030-yillar h.y) hukmronligi davrida olib borilgan keng ko'lamdag'i istilochilik siyosati natijasida, 1186-yilgacha – 200 yildan ortiq hukm surgan va faoliyatiga G'uriylar nuqta qo'ygan buyuk G'aznaviyalar davlati barpo etiladi. Mahmud G'aznaviy davridagi yuksalish davrida uning chegaralari g'arbda va shimoli-g'arbda Ray va Isfaxon shaharlari hamda Orol dengizi bilan birga G'arbiy Erongacha cho'zilgan, janubi-sharqda esa, Shimoliy Hindistonning katta qismini o'z ichiga olgan edi [2. – B. 63.].

Fors tarixchisi Gardiziy Mahmud G'aznaviyning Hindiston, Nimruz va Iroqqa qilgan yurishlarining tirik guvohi bo'lgan va bu haqida qimmatli ma'lumotlarni qoldirgan [4.]. Mahmud G'aznaviy davrida Xorazm, Xuroson, Seyiston, Qobul, G'azna, Shimoliy Hindiston kabi viloyatlar G'aznaviyalar qo'l ostida bo'lgan.

Abulqosim Mahmud taxtga o'tirgan yili xalifa Muqaddirdan Xurosonni boshqarish uchun yorliq hamda "Yamin ad-davla va amin al-milla" – "Saltanat tayanchi va musulmonlar jamiyatining ishonchli vakili" faxriy unvoni bilan taqdirlanadi [3. – B. 210.].

Mahmud taxtga o'tirgan paytidan boshlab o'z davlati chegaralarini kengaytirish siyosatini olib bordi. O'sha yildayoq Janubiy Toxariston (hozirgi Shimoliy Afg'oniston) ni bosib olgan bo'lsa, 999-yilda Marv yaqinidagi bo'lgan jangdan so'ng butun Xuroson Mahmud G'aznaviy izmiga bo'ysunadi. Manbalarning guvohlik berishicha, Amudaryo vohasi, strategik jihatdan juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan Termiz shahri ham Mahmud qo'l ostida bo'lgan. Termizda noib va qal'a kutvoli bevosita G'aznaviyalar tomonidan tayinlangan. Bu G'aznaviyalarga Amudaryo orqali Markaziy Osiyodan Hindistonga olib boradigan muhim savdo yo'lini nazorat qilish imkonini bergen [3. – B. 210.]. 1002-yili Seyiston bosib olingan.

Bu davrda mintaqadgi ikki yirik siyosiy kuch – G'aznaviyalar va Qoraxoniylar o'rtasida dastavval Amudaryo chegara qilib olingandi. Ammo Qoraxoniylar tez-tez chegarani buzib turishgan. Natijada, 1008-yilda Balx atrofida G'aznaviyalar bilan Qoraxoniylar o'rtasida jang bo'lib o'tadi. Bu jangda Mahmudning to'la g'alaba qozonadi va Xurosonda uning mavqeyi yanada mustahkamlanadi. O'sha yilda

Mahmud G'aznaviy Chag'oniyon va Xuttaloni ham bosib oladi, y yerga o'z noiblarini tayinlaydi.

1024-yilda Mahmud G'aznaviy markaziy Movarounnahr aholisini Alptegin zulmidan ozod qilish baxonasi bilan Amudaryodan kechib o'tadi va Temir darvoza orqali Samarcandgacha borib, So'g'dga hujum qiladi [3. – B. 210.]. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bu yurishdan so'ng Chag'oniyon, Xuttalon va Qo'bodiyonda Mahmud G'aznaviyning hokimiyati yanada mustahkamlanadi. Ammo arxeolog olim E.V.Rtveladzining fikriga ko'ra, Xuttalon, Qo'bodiyon va Vaxshning Mahmud G'aznaviy davlatiga nisbatan tutgan siyosiy mavqeい haqida esa fanda hali unchalik ishonarli malumotlar mavjud emas. Yana uning fikricha, qat'iy dalillar asosida Omul (Chorjo'y)gacha bo'lган butun Amudaryo vohasi Mahmud G'aznaviyga bo'ysungan deb hisoblash mumkin. Xorazm yurishi oldidan Mahmud G'aznaviyning vaziri tomonidan Termiz, Qo'bodiyon va Xuttalonda kemalarni jangga tayyorlash, Omulda esa qo'shin uchun oziq-ovqat toplashga buyruq berilganligi ma'lum [3. – B. 211.].

1017-yilda Mahmud G'aznaviyning ittifoqchisi bo'lган Xorazmshoh Abul Abbas Ma'munning o'ldirilishi va isyonchilar tomonidan taxtga Ma'munning jiyani Abulhoris Muhammad Aminning o'tqazilishi Mahmudning Xorazmga yurishiga sabab bo'ladi. 1017-yil yoz oyida Mahmudning qo'shini Xorazmni egallab, g'alayonlarni bostiradi. Mahmud Xorazm taxtiga o'zining noibi etib bosh hojib Mahmud Oltintoshni tayinlaydi. Mahmud Oltintosh ko'p jihatdan mustaqil siyosat yurg'ishizga harakat qilgan bo'lsa-da, o'zining butun hukronligi davrida G'aznaviy sultonlar, avval Mahmud, keyin esa Ma'sudning vassali hisoblangan hamda harbiy yurishlar davrida G'aznaviylar qo'shinini Xorazm qo'shnulari bilan to'ldirib turgan. Xorazmning qo'lga kiritilishi Mahmud G'aznaviyning Movarounnahrdagi mavqeyini yanada mustahkamlagan [3. – B. 211.].

Keyinchalik Mahmud G'aznaviy Qoraxoniylarga tegishli bo'lган Amudaryo bo'ylariga yurish qilib, Chag'oniyon, Qobodiyon, Xuttalon va boshqa chegaradosh viloyatlarni o'z davlati tarkibiga kiritadi. Eronning katta qismi, xususan, Ray va Jilob yerlarini o'z mulkiga qo'shib oladi [6. – B. 103.].

Turkiylar tarixida ko'plab hukmdorlar borki, ular oriyat, g'urur va oliyb darajadagi hukmdor sha'nining timsoliga aylanishga harakat qilgan [5. – B. 7.]. Mahmud G'aznaviyning birgina Ray viloyatiga yurishi uning qanday or-nomusli, g'ururli hukmdor ekanligini bizga ko'rsatib beradi. Kaykovusning "Qobusnoma" asarida Erondag'i Ray hukmdori Sayida xotun va Mahmud G'aznaviy munosabatlari bilan bog'liq bir qiziqarli ma'lumot keltiriladi. Unga ko'ra, Sulton Mahmud G'aznaviy Ray hukmdori Faxriddin Davlo vafotidan keyin bu yurtni o'z ixtiyoriga olmoqchi bo'ladi. Valiahd Majdiddin Davlo hali voyaga yetmaganligi sababli, Rayni o'g'li nomidan Sayida Xotun idora qilib turgan edi. Mahmud G'aznaviy Sayida Xotunga elchi jo'natib, juma namozida o'zining nomini xutbaga qo'shib o'qitishni, Sulton

Mahmud nomi bilan tanga pul chiqarilishini talab qiladi. Agar malika bu shartlarga ko'nmaydigan bo'lsa, G'azna qo'shini kuch bilan viloyatni egallashi, g'orat qilishi hamda malikaning o'zini qatl etishini ultimatum qilib qo'yadi [5. – B. 8.].

Sayida Xotun Mahmud G'aznaviyning do'q-po'pisasidan qo'rqlmay, dadillik bilan elchilarga shunday deb javob beradi: "Sulton Mahmudga shuni aytingki, mening erim Fahriddin Davlo tirikligida Sultonning har vaqt Rayga hujum qilishidan xavotirda turar edim. Erim vafotidan keyin men bu haqida xavotir olmay qo'ydim. Chunki, mening nazarimda Sulton Mahmud aql-farosatli hukmdor, u xotin kishi bilan jangga kirishni o'ziga ep ko'rmasa kerak. Shu narsa ma'lumki, "...sherning erkagigina emas, urg'ochisi ham xavflidir". Agar u bizga hukm qilmoqqa qaror qilsa, u vaqtida Xudo biladi, men jangdan qochmayman. Ikkisidan biri bo'ladi: yo g'alaba men tomonda bo'ladi, yoki men yengilaman. Agar g'alaba menga nasib etsa, u vaqtida men butun dunyoga elchilar jo'natib, "yuzlab hukmdorlarni qo'l ostida saqlagan Sulton Mahmudni men yengdim", deb mag'rurona jar solaman. Butun dunyo muarrixlari Sulton Mahmud xotin hukmdordan yengilanli haqida tarix yozadilar, uning nomi tarix sahnasidan yo'qoladi, unga bundan ortiq uyat bo'lmaydi. Agar Sulton meni yengsa unga shuhrat kelmaydi, chunki hech qaysi shoir yoki tarixchi Sulton Mahmud G'aznaviy xotin hukmdorni yengdi, deb maqtamaydilar". Sayida Xotunning dono va dadil fikrlarini tushungan Sulton Mahmud G'aznaviy to bu ayol vafotigacha biror marotaba ham Rayga hujum qilmaydi. Sayida Xotun 29 yil davomida shahzoda bilan birga hukmronlik qiladi va 1029-yili vafot etadi [5. – B. 8]. Shundan so'nggina Sulton Mahmud G'aznaviy Rayga qo'shin tortib, uni o'z hukmronligiga o'tkazadi.

Mahmud G'aznaviy o'z davrining yetuk sarkardasi bo'lib, murakkab va ziddiyatli vaziyat, qarama-qarshiliklarga boy bo'lgan chog'larda hukmronlik qilgan. Mahmud G'aznaviy 1030-yilda vafot etadi [6. – B. 103.].

Xulosa o'rnida shuni qayd qilish mumkinki, Mahmud G'aznaviy har tomonlama yetuk va sohiyatli shaxs bo'lgan. Uning davrida G'aznaviylar davlati musulmon olaming eng kuchli davlatiga aylangan. Ilm-fan, madaniyat, xususan, adabiyot rivojlangan. Mahmud G'aznaviyning o'zi ham o'z davrining ilmlı kishisi bo'lgan, turkiy ona tili bilan bir qatorda, fors, arab va pahlaviy tillarini mukammal bilgan va she'rlar ham bitgan. 1017-yilda Xorazm egallangandan so'ng, Ma'mun akademiyasidagi barcha yetuk olimlar G'azna shahriga olib kelingan. Ular ichida Abu Rayhon Beruniy, Nosir Xisrav, Abu Sa'id Gardiziy, Bayhaqiy kabi buyuk mutafakkirlar ham bor edi. Bu davrda 400 ga yaqin olimlar G'aznada unumli ijod qilganlar. Mahmud G'aznaviy intizomli va qattiqqo'l sarkarda bo'lgan. U davlatini buyuk davlatga aylantirish bilan bir qatorda, qurilish va me'morchilikka ham katta e'tibor bergen. G'azna, Balx, Nishopur, Lohur va boshqa shaharlarda ko'plab masjid, madrasa, xonaqoh va saroylar bino qilinib, kutubxonalar barpo etirgan. G'azna shahri gullab yashnagan, yirik markazga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azamat Ziyo. O’zbek davlatchiligi tarixi: Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar. – T.: Sharq, 2000.
2. Alimova D. A., Rtvladze E. V. O’zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. – T.: Sharq, 2001.
3. Eshov B. O’zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – T.: “Yangi asr avlod”, 2012.
4. Abu Said Abdulhasan ibn Zahhok ibn Mahmud Gardizi. Zaynul axbor. – – Tehron, 1909. – 120 b.
5. Zamonov A. O’rta asr tarixiy shaxslari hayotining ayrim noma’lum sahifalari. – T.: “BAYOZ”, 2020.
6. Zamonov A., Ismatova N. va boshqalar. O’zbekiston tarixi. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2022.
7. ru.m.wikipedia.org.